

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI

**M.K.MIRZAYEVA
M.A.SHARAXMETOVA**

**ADABIYOTSHUNOSLIK TERMINLARINING
URDUCHA- O'ZBEKCHA
IZOHЛИ LUG`ATI**

اردو - ازبک ادبی اصطلاحات کی لغت

Toshkent-2025

Ushbu izohli lug‘at “2020-2023 yillarda Toshkent davlat sharqshunoslik universitetini kompleks rivojlantirish dasturi” 21-bandli ijrosini ta‘minlash maqsadida Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti rektori tomonidan **2023 yil 11 iyun № 26-IB buyrug‘i** asosida "Adabiyotshunoslik terminlari lug‘ati (*sharq tillari kesimida*) ilmiy-amaliy loyihasi bo‘yicha amalga oshirildi. Lug‘at ma'lumotnomasi uslubida tuzilgan bo‘lib, umumadabiyotshunoslik va urdu adabiyotiga oid terminlar izohlanib, misollar yordamida isbotlangan. Lug‘at oliy o‘quv yurtlarining hindshunoslik yo‘nalishidagi bakalavriat va magistratura mutaxassisligi bo‘yicha ta‘lim olayotgan talabalar, akademik litsey o‘quvchilari va urdu adabiyotiga qiziquvchi keng kitobxonlar ommasiga mo‘ljallangan.

Loyiha rahbari:
Filologiya fanlari doktori, dotsent
Dilafruz Muxiddinova

Mualliflarlar:

o‘qituvchi M.Mirzayeva
dots. M.Sharaxmetova

Taqrizchilar:

Prof. fil.f.n. M.Abdurahmonova
PhD B.Yo‘ldoshev

Mazkur izohli lug‘at Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Kengashi tomonidan 2025-yil nashrga tavsiya etilgan.

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, 2025.

Kirish so‘zi

Urdu adabiyotining paydo bo‘lishiga islom falsafasi, hind va fors adabiyotining ta’siri katta. Urdu adabiyoti fors adabiyoti ta’sirida qasida, marsiya, g‘azal, ruboiy, masnaviy kabi janrlar bilan boyidi. Xusrav Dehlaviy urdu adabiyoti poetik an’alarini yuqori pog‘onaga ko‘tardi.

O‘rta asr urdu she’riyati fors she’riyati soyasida o‘sdi.

Hind tuprog’ida o’sgan hind she’riyatidan farqli o’laroq, urdu she’riyati dastlab forschcha so‘zlardan ilhomlangan.

Ushbu izohli lug`atni tuzishda pokistonlik adabiyotshunos olim, professor Anvar Jamalning ادبی اصطلاحات (Adabi istilahat) nomli lug`ati asos qilib olindi.

Alfavit tartibida tayyorlangan ushbu adabiyotshunoslik terminlarining urducha-o‘zbekcha izohli lug‘atini tuzishda N.Hotamov., B.Sarimsoqovlarning “Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha-o‘zbekcha izohli lug‘ati”dan foydalanildi.

Mazkur izohli lug‘atda biror nazariy tushuncha izohlanganda, shu tushunchani ochib berishda o‘zbek va urdu klassiklari, zamonaviy adiblari ijodidan misollar keltirildi.

آرٹ/فن - SAN'AT. Go'zallikni ijodiy ifodalash mahorati san'at deb ataladi. U "go'zallik yaratish uchun birinchi termin" deb ham ataladi. San'atning vazifasi hayot voqealariga estetik ifoda berishdir. Go'yo san'at hayot hodisalarining estetik tasdig'i yoki inkoridir. San'at - bu yaratilish jarayoni bo'lib, unda inson suveren mavjudot maqomiga ega bo'ladi.

San'at toifasiga she'riyat, adabiyot (adabiyotning barcha ijodiy janrlari), musiqa, rasm va haykaltaroshlik kiradi. Bu san'atlarning barchasida ifoda vositalari har xil bo'lib, tasavvur faoliyatining darajalari ham turlichadir. Lekin bularning barchasi zamirida yotgan estetik amaliyotning asosiy kuchi asosan bir xil. San'at uchun shakl va o'lcham muhim ahamiyatga ega. Tashqi tabiat hodisalari inson ruhi tomonidan shunday tarzda qabul qilinsa-ki, u qandaydir shaklda namoyon bo'lsa, san'at dunyoga keladi. Shunday qilib, san'atga quyidagi ta'rifni berish ham e'tiborga loyiq: "San'at — bu tabiatning xom materiali yoki hodisalari ustida inson ruhi tomonidan amalgaloshirilgan ta'sirdir". Kassirer esa san'atga quyidagicha ta'rif beradi: u ramziy til bo'lishi mumkin.

آركى ڭانپ - ARXETIPLAR. Asosan bu atama adabiyotga psixologiya va antropologiya fanlari orqali kirib kelgan. Yung uni "ijtimoiy ongsizlik" ma'nosida ishlatgan. Arxetipler - bu qadimiy obrazlar bo'lib, insoniyat naslidan naslga ibtidoiy timsollar (tasvirlar) ko'rinishida o'tib kelmoqda. Tarixiy jihatdan qadimgi ertak va

afsonalarda mavjud bo‘lgan dastlabki izlar va timsollar, insonning ongida meros tarzida saqlanib qolgan bo‘lsa, ular arxetip deb ataladi. Yungning fikricha, insonning aql-idrokining asosiy poydevorida butun insoniyat tarixining o‘tmishi timsollar ko‘rinishida mavjud. Mana shu ijtimoiy ongsizlik arxetipdir.

آفاقیت – UNIVERSALLIK. Bu jumla san’at terminologiyasiga oid bo‘lib, san’atga oid mashhur mavhum tushunchalardan biridir. Insoniy tuyg‘ular va kechinmalarni badiiy va estetik ifoda etish jarayonida, agar bu ifoda geografik va mahalliy chegaralardan chiqib, butun insoniyat tajribasini aks ettira olsa, bu holat “universallik” deb ataladi.

Insonning asosiy tuyg‘ulari va instinktlari bir xil bo‘lganligi sababli, agar bir san’at asari faqat ma’lum bir hudud, sinf yoki guruhning vakili sifatida yaratilsa, bu guruh vakillari undan zavq olishi mumkin, ammo butun insoniyat uchun bu asar dolzarb bo‘lmaydi. Har bir umumiyl qadriyat aslida mahalliy ildizlarga ega bo‘lishi mumkin, lekin har bir mahalliy qadriyat albatta umumiyl bo‘la olmaydi.

Ам – ILHOM. Bu she’riy termindir. Aflatun san’at ijodining “ilhom” nazariyasiga ishongan. Uning nazarida she’riyat – bu shunday diqqat va hayrat lahzasi bo‘lib, u sezgilarni yo‘qotadi. Shoirning ruhini go‘yo ilohiy mavjudotlar egallab oladi. Ushbu nazariyaning asosiy g‘oyasi “ilhom” dir.

Bunga zid ravishda, aksar tanqidchilar san’atni ongli, irodaviy va qat’iy tartibga solingan morfologik va sintaktik jarayon deb hisoblaydilar. Ularning fikricha, har bir san’at asari – bu aslida ongli bir hunar mahsulidir. Pol Valeri esa muvozanatli bir nazariya taklif qilgan: u

she’riyatni nafs (ichki olam) va hayotning tutash nuqtasi sifatida sirli deb hisoblaydi, chunki bu ikki mohiyatning aniq ta’rifi imkonsizdir. Ammo she’riyat shoirning ichki olamidan tashqariga chiqqach, shoir faqat o‘z ifoda vositalari, ya’ni so‘z va ovoz bilan maxsus mahorat orqali kurash olib boradi.

Zamonaviy psixologiya, ayniqsa Freyd va Yungning ongsizlik haqidagi nazariyalari tufayli san’atga oid yangi qarashlar yuzaga kelgan bo‘lib, bu qarashlarda san’atning hunarmandlik jihatiga emas, balki ixtiyorsiz (ya’ni ong osti orqali yuzaga keluvchi) ma’noga ko‘proq urg‘u berilgan. Shuningdek, zamonaviy tilshunoslik ham so‘z bilan ishslash hunari borasida muhim qarorlar va yondashuvlarni ilgari surgan.

آواگون – METEMPSIKOZ. Bu diniy termin bo‘lib, uning so‘zmaso‘z tarjimasi “kelish va ketish” deganidir. Hindular e’tiqodiga ko‘ra, inson ruhi o‘limdan so‘ng boshqa bir jismga o‘tadi. Bu tushuncha oriylardan olingan. Ularning fikricha, ruh yaxshi yoki yomon bo‘lishiga qarab yangi qiyofa (jism) oladi: agar ruh ezgu bo‘lsa, yaxshi jismga, agar yomon bo‘lsa, yomon jismga o‘tadi. Metempsikoz hindularning asosiy e’tiqodlaridan biridir.

آورد – SUN’IYLIK. Bu she’riy termin bo‘lib, “ilhom” tushunchasining aksi hisoblanadi. Ya’ni, agar shoir ongli ravishda fikr yuritib, she’r yozishga o‘tirsa va yozilgan she’r ustida uning bayoni, tuzilishi va tartibini sinchiklab o‘ylab, so‘zlarni tanlab, ularni yanada ravon, aniq va chiroyli shaklda ifoda qilishga astoydil harakat qilsa —

bu “sun’iylik” deyiladi. Qadimgi adabiyot vakillaridan farqli o’laroq, Holiy) “ilhom”dan ko‘ra “sun’iylik” ni ustun qo‘ygan.

آبنگ – ГARMONIYA. Biror san’at asarining tarkibiy elementlari o’rtasidagi o‘zaro uyg‘unlik “garmoniya” deb ataladi. Har bir buyuk shoirning she’ri hissiy ta’sir nuqtayi nazaridan o‘quvchida turlicha ta’sir uyg‘otadi. Ba’zi she’rlar juda jo‘shqin va ruhlantiruvchi bo‘ladi, ba’zilar esa sokin va yumshoq ta’sir qoldiradi. Shuningdek, ayrim she’rlarda chuqur fikrlar bo‘lishiga qaramay, ovoziy ta’sir yoki ruhiy zarba darhol sezilmaydi, ya’ni ta’sir mavjud, lekin asta boshlanadi va uzoq saqlanadi. Ovoz va ohang orqali yuzaga keladigan shu hissiy holatlar garmoniya deb ataladi.

Odatda shoirning o‘ziga xos badiiy tabiat va ichki tuyg‘ulari bo‘ladi, aynan shu ichki badiiy tuyg‘u uning she’riyatidagi garmoniyani shakllantiradi. Garchi shoirning poetik olamidagi garmoniyani aniqlashda so‘z tanlovi, vazn, mavzu, ifoda uslubi, tazodlar, o‘xshatish va istioralar, hamda uning o‘ziga xos uslubi muhim rol o‘ynasa-da, aslida bu barcha vositalarning tanlanishida ham shoirning badiiy shaxsiyati va ichki tuyg‘usi hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Shuning uchun ham ko‘rinib turibdiki, bir xil mavzu va holatni turli shoirlar o‘z lug‘at boyligi va o‘ziga xos ifoda uslubida bayon qilgan, natijada ularning garmoniyalari ham turlicha bo‘lgan.

ابتدال – VULGARIZM. Bu she’riy va nasriy termin bo‘lib, so‘zning ma’nosi “kamtarlik darajasidan pastlik, sayozlik yoki odobdan yiroq, odobsizlikka yaqinlik” demakdir. Ya’ni, agar biror adabiy asarda nojo‘ya, bozorbozlikka yaqin yoki noo‘rin so‘zlar ishlatilsa yoki mavzu

odob va madaniyatdan yiroq bo'lsa, bu holat vulgarizm deb ataladi. Vulgarizm nutqdagi nuqsonlardan biri sanaladi.

Qachonki biror shoir o'z she'rida shunday so'zlarni ishlatsa va ular tinglovchida yoqimsizlik yoki jirkanish hissini uyg'otsa, vulgarizm hosil bo'ladi. Bunday so'zlarni aniqlash qiyin bo'lsa-da, nozik didli va madaniyatli o'quvchi buni osongina sezadi.

ابلاع – ALOQA. Boshqacha aytganda so'z, xabar, g'oyalar, e'tiqodlar yoki bilimlar va boshqalarni yuborish yoki etkazish harakati (nutq, yozish yoki ishora va imo-ishoralar orqali), va'z qilish.

ابهام – MAVHUMLIK/ NOANIQLIK. San'at asarida ijodkor bilan tinglovchi yoki o'quvchi o'rtaida tushunish va tafakkur darajasidagi tafovut tufayli noaniqlik, yuzaga keladi. Bu holatning ikki asosiy ko'rinishi mavjud.

Birinchidan, agar san'at asarining yaratilishi va yetkazilishida tengsizlik bo'lsa, u holda bir nechta turli ma'nolar hosil bo'ladi va asar ko'p qirrali tus oladi. Bu esa tushunishning yangi, nisbatan chiroyli shaklining yuzaga chiqish ehtimolini tug'diradi. Ikkinchidan, ko'p hollarda mavhumlik asarga o'ziga xos jozibani beradi. Ijodiy tilda mavhumlik bo'lmasa, hech bir san'at tili o'ziga xosligini saqlab qola olmaydi, chunki aniq va qo'pol ifoda faqat ilmiy haqiqatni bayon etadi, ammo she'riy va tasavvuriy uslubdan bebahra bo'ladi.

Har bir muloqot uchun ong darajasida muvofiqlik zarur. Bu darajasiz hech qanday so'z go'zal va ta'sirli bo'la olmaydi. Ma'no uzatish uchun bu ajralmas shartdir. She'riyat o'zining tarixiy sharoiti va zamon-makonida rivojlanadi. U har bir kishining oldiga o'zi borib

olmaydi. Biroq u umuminsoniy qadriyatlar nuqtayi nazaridan yuksak bo‘lishi va o‘z o‘rnida asosli bo‘lishi lozim.

اجتاعیت – **UMUMIYLIK.** Alohalik (yakka shaxs) o‘rniga jamoani maqsad qilish bu umumiylidir. Adabiy atama sifatida umumiylit bu shaxsiy tuyg‘u va hissiyotlar o‘rniga butun insoniyat jamiyatining dard-u quvonchlari, axloqiy qadriyatlari va muhabbatini mavzu qilishdir. Bunday adabiyot butun jamiyatning ijtimoiy hayotiga ahamiyat beradi.

احساس – **HIS-TUYG‘U.** Bu asosan psixologiyaga oid termin hisoblanadi. Adabiy terminlar tizimida psixologiyadan o‘zlashtirilgan terminlar orasida “his” (ya’ni hissiyot) eng ko‘p qo‘llaniladigan, mashhur she’riy va tanqidiy termindir. His bu shunday sezgi tajribasiki, u har bir holatda yo yoqimli, yo yoqimsiz kechinmaga olib keladi.

Masalan, bir dona atirgul bizning diqqat markazimizga aylansa, bu ko‘rish sezgisi tajribasi (Visual Experience) bo‘ladi. Agar bu gul bizga yoqimli va chiroyli ko‘rinsa, bizda yoqimlilik hissi paydo bo‘ladi. Yana bir misol: g‘amgin bir ovozni eshitsak, bu eshitish tajribasi (Audio Experience) bo‘ladi. Ushbu ovoz bizda yoqimsizlik hissi uyg‘otadi.

Shunday qilib, “his” bu idrok va kechinmaning birikuvidir. Mashhur psixologlar Tichner va Undt hissiyotlarning psixologik omillari va jihatlari ustida katta tajribalar o‘tkazganlar.

اخلاقیات – **ETIKA.** Etika asosan falsafaning termini bo‘lib, turli sohalarda qo‘llaniladi. Etika insoniy harakatlarning maqsadlari hamda ularning asosiy tamoyillarining mohiyatini o‘rganadigan fandir.

Yaxshilik nima? Uni qanday yo‘llar bilan qo‘lga kiritish mumkin? Yaxshilikni tanish va uning asosiy tarkibiy qismlarini tahlil qilish etika doirasiga kiradi. Qadimgi yunon faylasuflari lazzatni baxt bilan barobar deb bilganlar. Ularning fikricha, qaysi amal lazzat yoki huzur bag‘ishlasa, o‘sha yaxshilikdir. Aflatun esa go‘zallik, haqiqat va yaxshilikni oliv insoniy qadriyatlar deb hisoblaydi. Suqrot bilimni etika (yaxshilik)ning manbai deb bilgan, Arastu esa bu borada histuyg‘ularning ahamiyatini ham tan olgan.

Bu borada Arastu juda dolzarb fikr bildirgan. U shunday deydi: “Bir amalni faqat lazzat beradi, deb yaxshilik deyish mumkin emas, balki u amal ezgulik bo‘lgani uchun unda lazzat paydo bo‘ladi”. Suqrot aql va mantiqiy mushohadani baxtga erishish vositasi deb hisoblaydi. Arastu esa yaxshilikni ikki ekstremallik o‘rtasida izlagan. Shunday qilib, “o‘rtacha holat” yoki “me’yor” yaxshilikning sinonimi bo‘lib qoladi.

Etika va uning tarkibiy qismlarining mohiyati haqida faylasuflar tomonidan ko‘plab foydali fikrlar ilgari surilgan va yakunda shunday xulosa qilinadi: jamiyatda baxtli hayot kechirishning yo‘li — bu insonning jamoaviy baxt sari intilishi bo‘lib, shu orqali u shaxsiy baxtga ham erisha oladi. Va aynan mana shu baxt yaxshilikdir.

ادария – BOSH MAQOLA/ EDITORIAL. Bu asosan jurnalistikaga oid termin hisoblanadi. Bunday maqola gazeta yoki jurnal muharriri tomonidan hozirgi dolzarb voqealar yoki kutilmagan va shoshilinch muammolar yuzasidan yoziladigan maqoladir. Ushbu maqola o‘quvchilarning yuqorida qayd etilgan masalalarga e’tiborini jalb qilish maqsadida yoziladi.

Karl G. Miller uni quyidagicha ta’riflaydi:

Editorial – bu shunday maqola bo‘lib, u dolzarb mavzu asosida yoziladi va unda muallif o‘quvchini o‘z nazarida to‘g‘ri deb hisoblagan yo‘lga yo‘naltirishga harakat qiladi. Editorial muallifi o‘quvchini o‘z fikriga qo‘shilishga undaydi va uni ishontirishga, shuningdek, ijobjiy munosabat bildirishga harakat qiladi. Bu yo‘lda u turli ilhomlantiruvchi va rag‘batlantiruvchi usullardan foydalanib, o‘quvchining histuyg‘ulariga ta’sir ko‘rsatishga harakat qiladi.

ادب – **ADABIYOT**. Bu yerda “*adab*” so‘zi bilan odob, hurmat, farosat, madaniyat va til bilimi nazarda tutiladi. “Adab” atamasi san’atning mashhur va ijodiy sohasiga oid bo‘lsa-da, u shu bilan birga majlis odoblari, mehmonnavozlik, ta’lim-tarbiya, sarf va nahv (grammatika), hamda til bilish ma’nolarini ham o‘z ichiga oladi. Ibn Xaldun adabni ilm deb atagan. Bir muddat bu atama kotiblik va insho yozish uchun ham ishlatilgan.

Adabiyotga ijodiylik unsuri qachon va qanday kirib kelgani aniq emas. Biroq xayol, tasavvur va ilhomning mo‘jizaviy kuchi bu atamaga zamonaviy qiyofa baxsh etgan. G‘arbiy tanqidchilar adabyot haqida quyidagi ta’riflarni bergenlar:

Mai Kin shunday deydi: “*Tabiat inson ichiga joylagan abadiy salohiyatlarning ifodasi adabiyotdir*”.

Nyuman esa “*Til va so‘z orqali inson fikr va his-tuyg‘ularini ifodalash adabiyotdir*”, deydi.

Mettyu Arnoldning fikricha, “kitoblar orqali bizga yetib kelgan barcha bilimlar adabiyot hisoblanadi”.

Bu ta’riflarning barchasida yozma shakl (matn) adabiyotning markazida turadi. Agar **Mettyu Arnoldning** ta’rifiga amal qilinsa, unda geometriya masalalari, iqtisodiy qonunlar va matematik qoidalar ham adabiyot bo‘lib qoladi. Albatta, bu mantiqan noto‘g‘ri bo‘ladi.

Shu bois, “adabiyot” o‘z maxsus ma’nosida faqatgina badiiy va ijodiy ifoda uslublariga, ya’ni roman, drama, she’riyat, hikoya va insholarga taalluqlidir.

ادبی روایت – **ADABIY AN’ANA.** Adabiyot tarixida mavjud bo‘lgan eng qadimgi tushunchalarning davomiyligi “*adabiy an’ana*” shaklida namoyon bo‘ladi. Adib bilan o‘quvchi o‘rtasidagi masofani yo‘qotadigan eng muhim ko‘prik aynan adabiy an’anadir. Agar o‘quvchi adabiy an’anadan xabardor bo‘lsa, u adabiy asarni anglashda qiyinchilik sezmaydi. Boshqacha aytganda, adabiy an’ana – qadim zamonlardan to hozirgi kungacha adabiyotda shakllangan barcha o‘xshatishlar, istioralar, tazodlar, terminlar, timsollar, ramzlar, ishoralar, ifoda uslublari, bayon qilish yo‘llari va til madaniyatining barcha shakl va vositalari tizimini o‘z ichiga oladi. Bu tizim asrlar davomida adabiyotda shakllanib kelgan bo‘lib, uni shoir ham, o‘quvchi ham tushunishi zarurdir, shundagina ular adabiyotni chin ma’noda qadrlay olishadi va chuqur anglay olishadi.

اساطیر دیو مالا – **MIFOLOGIYA.** Bu tushuncha qadimgi butlar va ular haqidagi afsonaviy hikoyalar, xudolar va ilohiy mavjudotlarga oid tasavvurlarni ifodalaydi. Bunday afsonaviy voqealar va xudolar bilan bog‘liq manbalar “asotir” deb ataladi. Ayniqsa, yunon, misr va hind asotirlariga katta ahamiyat beriladi.

Inson nafsining tubida mavjud bo‘lgan she’riyatning afsonasi bu insoniyatning dastlabki bosqichidagi afsonaviy tasavvur yoki tafakkurning mahsulidir. Aql-idrokdan avvalgi davrda inson o‘zini va tashqi olamni bir-biridan farqlay olmas edi. Inson o‘sha davrda tabiat hodisalarini ham o‘ziga o‘xshash, quvonch va g‘amni his qiladigan mavjudot deb hisoblagan, ularni o‘ziga hamdard deb bilgan. Bu afsonaviy tafakkur bugungi kunda ham she’riyatda yashab kelmoqda. Zamonaviy shoir ham tabiat hodisalari bilan suhbatlashadi, ularga tirik mavjudotlarga xos xislatlarni yuklaydi. Demak, mifologiya faqat o‘tmishning hikoyasi emas, balki bugungi she’riyatning tomirlarida yurib turgan jonli ruhdir. Zamonaviy fanlar ham tilning shakllanishi va dinlarning taraqqiyoti bilan bog‘liq mifologik izohlarni bergen va ularning qadriyatini tan olgan. Bu borada Sar Jeyms Freyzerning mashhur asari “The Golden Bough” (Oltin Shox) alohida e’tiborga loyiq. Ushbu asarda sehr-jodu va dinning o‘zaro aloqasi tahlil qilingan bo‘lib, u faqat antropologiyaga emas, balki zamonaviy adabiyot va psixologiyaga ham chuqur ta’sir ko‘rsatgan.

استعاره – **ISTIORA.** Istiora balog‘at ilmiga oid termindir. Lug‘aviy ma’nosи “qarz olish”, “o‘zgadan olish” deganidir. Ya’ni, bir narsaning xususiyat va belgilarini boshqa bir narsa bilan bog‘lab ifodalash “istiora” deb ataladi. Bunda so‘z o‘zining asl ma’nosida emas, balki ko‘chma (majoziy) ma’noda ishlatiladi, lekin bu ikkala ma’no orasida o‘xshatish aloqasi bo‘ladi. Istiora tashbehning shunday shakliki, unda nima bilan o‘xhatilgani zikr qilinmasa-da, u tushunarli bo‘lib qoladi.

Istiora va ramz o‘rtasida kuchli aloqa mavjud: ba’zi holatlarda ramz doimiy istioraga, istiora esa umumiylar ramzga aylanadi.

Jobir Ali Sayyid bu borada shunday deydi:

“Istiora – tashbehning siqilgan shakli, maqol esa istioraning o‘lgan shaklidir”.

Qadim davrlardan beri tilning rivoji inson tafakkurining istioraviy kuchi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan. Bugungi kunda ham she’riy tilshunoslik ning asosiy tayanchi uning istioraviy muhitidir.

Nutq tilining sarf-nahv va lug‘aviy tizimi aqlga asoslangan faoliyat bo‘lib, u orqali so‘z ma’nolari iloji boricha aniq va cheklangan tarzda belgilanadi. Ammo she’riy tilshunoslik tafakkur va istioraviy kuch orqali til va ifoda imkoniyatlarini kengaytiradigan tizimdir. U xayol, tasavvur va ramziy ifodalar yordamida so‘zning estetik va ruhiy imkoniyatlarini ochib beradi.

سائنسیفیک تئقید – **ILMIY TANQID**. Ba’zi tanqidchilar tanqidni adabiyotning bir bo‘limi deb emas, balki ilmning bir tarmog‘i, deb hisoblaydilar. Bunday qarashga ega tanqidchilar, aslida, adabiy asar ichida mavjud bo‘lgan tanqidiy prinsip va qonuniyatlar haqida so‘z yuritadilar. Bu tanqid maktabi ko`proq g'arbga oid. Ammo uning xususiyatlari sharq tanqidida uchraydi. Ilmiy tanqidda badiiy asar so‘f ilmiy, adabiy-badiiy nuqtai nazardan, hech qanday aniq yo‘nalish va oqimga havola qilinmagan holda ko‘rib chiqiladi. Bu tanqidda hech qanday shaxs yoki nazariyaga urg‘u berilmaydi. Shunday qilib, tanqidchi moddiy sabab va motivlarni ham hisobga oladi.

Tanqidchi tarixiy va ijtimoiy omillarni e'tiborsiz qoldirmasdan, matn va qadriyatlarga ob'ektiv nuqtai nazardan qaraydi. Ilm-fanda bo'lgani kabi, ob'ektlarning haqiqati bo'yicha kuzatishlar, tushunish va mulohazalardan so'ng xulosalar chiqariladi. Kuzatish, tajriba va tahlil qilmasdan faktlarni olish mumkin emas. Shunga o'xshab, ilmiy tanqid bilan shug'ullanuvchi shaxs o'z xohish-istaklari, didi va qarashlariga qarab emas, balki adabiy asarni ob'ektiv va qat'iy pozitsiya bilan o'rghanadi. Xuddi shunday, ishda asarning estetik jihatlari, texnik jihatlari, lingvistik xususiyatlari va individual didlari muhokama qilinadi.

اسلوب – USLUB. Uslub bu san'atkorlik tajribasidagi tasodifiy go'zallik emas, balki uzoq davom etgan, maqsadli va izchil aloqaning mahsulidir. Uni ifoda uslubi, tarkib yo'li yoki vaziyat deb ham atash mumkin. Uslubning asliyati shundaki, u san'atkorga xos bo'lgan tanlangan yo'l, fikr ifodasining uslubi bo'lib, bu yo'l sho'ba, mакtab yoki zamonaviy ta'sirlar bilan emas, balki shaxsiy tajriba, madaniy ong va estetik sezgirlik orqali shakllanadi. Adabiy an'ana bilan chuqur tanishlik uslubning go'zalligini yuzaga chiqaradigan asosiy omillardan biridir.

Uslub doimo o'zining vositalari, ya'ni san'atning ifoda shakllari va materiallari bilan bog'liq holda shakllanadi.

Qadim davrlarda, xitoy, eroniy, mo'g'ul, britan, rim, yunon kabi sivilizatsiyalar o'zlarining hududiy chegaralari va aloqa imkoniyatlarining cheklanganligi sababli hududiy (geografik) ifoda

uslublarini shakllantirganlar. Ammo zamonaviy davrda bu hududiy cheklovlarining o‘rnini adabiy harakatlar egalladi. Masalan:

- Neo-klassitsizm
- Romantizm
- Realizm
- Impressionizm
- Ekspressionizm
- Abstraktsionizm

Biroq har qanday davrda noyob ijodiy shaxslar bo‘lgan va bo‘ladi, ularning uslubi doimo shaxsiy yondashuv va o‘ziga xoslik bilan ajralib turgan.

Shaxsiy uslub uchun ikki narsa muhim va zaruriy hisoblanadi:

1. Shaxsiy joziba
2. Nafis sezgirlik.

Bu ikki sifat ijodkorga o‘z uslubini yaratish va o‘quvchiga ta’sir o‘tkaza oladigan, esda qoladigan adabiy ifoda taqdim etish imkonini beradi.

اشتراكىت – SOTSIALIZM. Ibtidoiy davrida yashagan inson umumiyligi, jamoaviy qoidalarga bo‘ysunib yashagan. Insoniyat tarixi shuni ko‘rsatadiki, inson tosh davridan chiqib, asbob-anjom yasashni o‘rgangach, ov qilgan hayvonini pishirayotganda butun qabilasi bilan birgalikda halqa bo‘lib raqs tushgan, barchasi birga ovdan bahramand bo‘lishgan. Bu - resurslarningadolatli taqsimoti, ya’ni har kim birdek foydalanadigan tizim edi. Bu holat ijtimoiy tenglik va o‘zaro yordamga asoslangan ilk “kommunistik” tuzum edi.

Kommunizm yoki ijtimoiy egalik deganda quyidagi tuzum tushuniladi:

- Shaxsiy mulkka emas, balki umumiyligi egalikka urg‘u beriladi.
- Jamiyat a’zolari o‘rtasida resurslar teng va adolatli taqsimlanadi.
- Hech kim hech kimni zo‘ravonlik bilan ekspluatatsiya qilmaydi.

Ammo ochko‘zlik, xudbinlik va tabiiy boyliklarni o‘zlashtirish istagi har doim kommunistik g‘oyalarni amalga oshirishga to‘sinqinlik qilgan. Qishloq xo‘jaligi va sanoat inqiloblari davrida ham “qul va xo‘jayin” o‘rtasidagi farq yo‘qolmagan. Ishchilar doimo sanoatchilar tomonidan, dehqonlar esa yer egalari (feodallar) tomonidan ekspluatatsiya qilingan. Keyinchalik esa g‘arb donishmandlari tomonidan shaxsiy ekspluatatsiya milliy ekspluatatsiyaga aylantirildi.

Dunyoning buyuk faylasuflari shaxsiy mulkni jamiyatdagi ko‘plab illatlarning ildizi deb hisoblagan. Karl Marksdan ancha oldin ham ba’zi faylasuflar zodagonlar va din peshvolarining o‘zaro til biriktirib, oddiy xalqni, ayniqsa mehnatkashlarni aldab ularning boyligini egallayotganini ochiq ko‘rsatib o‘tganlar. Adam Smit va Dekart kabi mutafakkirlar esa mehnatni barcha boyliklarning manbai deb e’lon qilganlar. Ammo Karl Marksning buyuk xizmatlaridan biri kommunizmning ideal g‘oyasini faqat nazariy emas, amaliy jihatdan ham amalga oshirsa bo‘ladigan tarzda ishlab chiqqanligidir.

اضافي/اضافية NISBIYLIK. Nisbiylik (relativizm) tushunchasi aslida zamонавий fanning bir ne’matidir. Biz biror narsani anglab yetayotganimizda, unga nisbatan fikr bildirish bu anglashga qo‘shimcha bo‘lgan jihat hisoblanadi. Har qanday narsaning yaxshi yoki yomon,

katta yoki kichik bo‘lishi taqqoslash va solishtirish orqali aniqlanadi. O‘z-o‘zidan hech qanday narsa yaxshi yoki yomon emas. Faqatgina biz biror narsani boshqa bir narsa bilan solishtirsakkina, uning xususiyatlarini aniqroq tushunamiz. Buning eng yaxshi misoli Jonatan Swiftning mashhur asari “**Gulliver’s Travels**” (*Gulliverning sayohatlari*) da berilgan: Gulliver bir qishloqqa boradi, u yerda olti dyuyumli mitti odamlar yashaydi. Ular uni dahshatli bir gigant deb o‘ylab, chigirkalardek uning ustiga chiqib, arqon bilan bog‘lab qo‘yishadi. Keyinchalik u baland bo‘yli odamlar yashaydigan boshqa bir qishloqqa boradi, bu yerda esa u o‘zini mittidek his qiladi. Mana shu holatga “nisbiylik” deyiladi.

Adabiy tanqidda ham biror adabiy asarni yaxshi yoki yomon, murakkab yoki sodda, sermazmun yoki sust deb baholash aslida nisbiy qarashga bog‘liqdir. Ammo taqqoslash asosida biz quyidagicha xulosa chiqara olamiz: “Bu adabiy asar falon asarga qaraganda soddaroq, mazmunan chuqurroq, go‘zallikka boyroq yoki ancha past darajadagi asardir”.

اظهار – IFODA. Har qanday yashirin haqiqatni oshkor qilish ifodadir. Shu ma’noda, ifoda subyektiv termin hisoblanadi. Krochening nazarida san’atkorlik faoliyati o‘zining sof holatida botiniy mulk hisoblanadi. U ifodani “intuitsiyaviy bilim” deb ataydi.

Ifoda insonning tabiiy sifatidir. Aynan shu sababdan insonni “hayvon-e notiq” (ya’ni gapira oladigan mavjudot) deb atashgan, sababi u o‘z fikrlarini mantiqiy til orqali izhor eta oladi.

She’riyat, raqs, musiqa, rassomlik va haykaltaroshlik — bularning

barchasi san'at tillaridir. Ularning tabiatini mantiqiy emas, balki ifodaviydir.

Ifodaning ko‘plab shakllari mavjud, ammo u har doim “shaxsning o‘ziga xos idorasi” doirasida qoladi. Chunki chuqur ma’noda, ifoda “shaxsiyatning ifodasi” bilan barobar bo‘ladi.

San’at dunyosida ifoda bir yo‘nalish sifatida ham mavjud. Buning zamirida “narsalar va holatlarni insonning ichki nigohi bilan ko‘rish va tasvirlash” yotadi.

اعراب – EROB (HARAKAT). Tovushli ifoda bo‘yicha harflarning harakat va sukunlari (zabar, zer, pesh, shadd, madd) tizimi erob deb ataladi. Erob tushunchasi ayniqsa Qur’oni Karim bilan bog‘liqdir. Qur’oni tilshunosligi arablar uchun yangilik emas edi. Ular uni erobsiz o‘qib, tushunishlari mumkin edi, biroq ajamlar (arab bo‘lmagan xalqlar) uchun bu zarur bo‘ldi. Erob so‘zning talaffuzini aniqlash va uni to‘g‘ri aytish uchun qo‘srimcha kafolat beradi. Urdu tili lug‘at tizimi arab, fors va yana boshqa ko‘plab tillarning aralashuvidan iborat bo‘lganligi sababli so‘zning to‘g‘ri talaffuzini erobsiz aniqlash imkonsizdir. She’riyat esa talaffuzning guvohnomasi, dalili va belgisi hisoblanadi.

اسانچہ – QISQA HIKOYA. Insoniy tajribani nasriy shaklda eng qisqa so‘zlar bilan ifodalash ushbu hikoyaning vazifasidir. Adabiyotda bu janr ingliz adabiyotidagi izlanishlar ta’sirida paydo bo‘lgan bo‘lib, unda ong oqimi va erkin fikr uyg‘unligi faol rol o‘ynaydi. She’riyatda she’r, nasrda esa hikoyachalar bir xil tabiatga ega bo‘lgan janrlardir, biroq ular urdu adabiyotida yetarlicha mashhurlikka erisha olmagan.

افسانه – **HIKOYA.** Hikoya termin jihatdan urdu adabiyotidagi nasriy janr bo‘lib, unda voqea, hodisani go‘zallik va ta’sirchanlik uchun bezab berish maqsad qilinadi. Hikoya dostonning rivojlangan shaklidir. Doston odatda g‘ayritabiiy va aqlga to‘g‘ri kelmaydigan voqealarning to‘plami bo‘lgan bo‘lsa, vaqt o‘tib, u nisbatan real shaklda novel (roman)ga aylandi va XX asrning sanoatlashgan davri uni yanada sayqallab hikoyaga aylantirdi. Roman esa o‘z o‘rnida nasrning alohida janri sifatida mavjud.

Hikoyada ixchamlik va qisqalik asosiy o‘rin tutadi. Hikoyaning eng muhim xususiyati ta’sir birligi hisoblanadi.

G‘arb adabiyotida birinchi bo‘lib Edgar Allan Poe hikoyani alohida nasr janri sifatida tan olgan. U hikoya yozish uchun qoidalar belgilagan va unda ixchamlik hamda ta’sirning yagona bo‘lishini asosiy shart deb belgilagan. Keyinchalik yevropalik yozuvchilar — Maupassant, Tolstoy, Maksim Gorkiy va D.H. Lawrence bu janrni yuksak maqomga olib chiqqanlar.

Urdu adabiyotida hikoya janri XX asr boshlariida paydo bo‘lgan. Sajjad Haydar Yildirim va Premchand dastlabki hikoyanavislardandir.

اقدار – **QADRIYATLAR.** Qadriyat tushunchasi aslida axloqshunoslik orqali adabiyotga kirib kelgan. Inson uchun ba’zi narsalar muhim, ba’zilari esa ahamiyatsiz bo‘ladi. Shuning uchun biz ko‘proq o‘zimiz uchun muhim bo‘lgan narsalarga e’tibor qaratamiz va ahamiyatsiz deb hisoblagan narsalarga e’tibor bermaymiz. Inson uchun aynan shunday qadriyatlar muhim bo‘ladi, ya’ni ular insonning istak va orzularini ro‘yobga chiqarishda yordam beradi. Qaysi qadriyatlar inson

tabiatи ehtiyojlarini to‘liqroq qondirsa, ular biz uchun shuncha muhim sanaladi va ular orqali boshqa istaklar ham qondiriladi.

Yunon faylasuflari uchta asosiy oliy qadriyatni belgilashgan:

1. Go‘zallik
2. Yaxshilik
3. Haqiqat

Bu qadriyatlar o‘z-o‘zidan oliy sanaladi. Shuning uchun ham butun dunyo jamoaviy ongida bu borada yakdillik yuzaga kelgan: qolgan barcha qadriyatlar nisbiy (o‘zgaruvchan) bo‘lsa-da, faqat ushbu uch qadriyat mutlaq, doimiy va butun insoniyat uchun umumiylis hisoblanadi.

Boylik, obro‘, shuhrat kabi qadriyatlar – nisbiy qadriyatlardir, ya’ni ular sharoitga bog‘liq holda o‘zgaradi. Ammo go‘zallik, yaxshilik va haqiqat – bular abadiy, o‘zgarmas, makon hamda zaon chegaralaridan mustaqil qadriyatlardir.

الىگرى – **ALLEGORIYA.** Allegoriya ingliz badiiy adabiyotidan olingan bo‘lib, unda manzum yoki nasriy shakldagi shunday hikoyalar nazarda tutiladiki, ularning obrazlari – shaxslar, narsalar yoki voqealar ramziy sifatlar bilan bezatiladi. Ya’ni, bu obrazlarning o‘ziga xos shaxsiyati yo‘q, balki ular tushunchalar ko‘rinishida namoyon bo‘ladi.

Allegoriya – bu oddiy qahramonlarga asoslangan hikoya emas. To‘g‘rirog‘i, allegoriyada voqealar, narsalar va tushunchalar jismoniy shaklga keltirilib tasvirlanadi, ya’ni, allegoriya abstrakt va noaniq tushunchalarga jismoniy obrazlar berilgan hikoyadir.

Urdu adabiyotida Mulla Vajahiyning “Sab Ras” va Muhammad Husayn OzOdning “Nairang-e-Khayal” asarlari allegoriyaning yorqin

misollaridir. Bunday hikoyalarda ishq, aql, tavba, shon-shuhrat, xohish-istak, go‘zallik, yaxshilik, balog‘at, obro‘ kabi tushunchalar obraz sifatida jonlantirilib, qahramonlar ko‘rinishida tasvirlanadi.

المي – **TRAGEDIYA.** Tragediya terminiga Arastu o‘zining mashhur asari “Poetika”da quyidagicha ta’rif beradi:

“Tragediya bu jiddiy va to‘liq bo‘lgan bir harakatning taqlididir; unda til badiiy vositalar bilan bezatilgan bo‘lib, bu vositalar har bir qismda o‘ziga xos tarzda qo‘llanadi. Bu taqlidiy ifoda hikoya qilish (bayoni) orqali emas, balki dramatik shaklda bo‘ladi. Uning voqealari tomoshabinda rahm-shafqat va qo‘rquv hissini uyg‘otadi, natijada bu hissiyotlardan poklanish) yuz beradi”.

Bu termin dastlab inson hayotidan kelib chiqqan va keyinchalik adabiyotga kirib kelgan. Inson hayoti ulkan bir tragediya bo‘lib, uning tafsilotlarida doimo fojiali hodisalar yuz berib turadi. Har bir tragediya insoniyat hayotida yangi bir holat, yangi bir ruhiy o‘zgarish keltirib chiqaradi.

Arastuning bu ta’rifidan so‘ng, butun jahon adabiyoti va tanqidiy nazariya chuqur ta’sirlandi. Keyinchalik drama rivojlanib, dramaturgiya bo‘yicha yangi jihatlar kashf etilgach, bu tor ta’rif kengaytirildi.